

GLOBAL MUAMMOLAR. GEOSIYOSIY JARAYONLARNI BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Toshpo'latova Xolida Olimjonovna

Samarqand viloyat Pastdarg'om tumanida joylashgan

47-maktabning Geografiya fani o'qituvchisi

Аннотасија

Ushbu maqolada bugungi kundagi geografik muammolar, olamning geo o'zgarishi va buning natijasida insoniyat hayotining og'irlashuvi haqida so'z boradi. Geosiyosat tushunchasi va uning bugungi kundagi ahamiyati to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Davlatlarning tuzilishi va joylashgan o'rniga qarab olib boradigan siyosati tahlil qilingan. Strategik nuqati nazardan hamkor davlatlarning bugungi kundagi faoliyatiga qisqacha to'xtalib o'tilgan.

***Kalit so'zlar:** global muammolar, geosiyosat, muhitning o'zgarishi, hamkorlik, cho'llashuv.*

O'tgan asrning oxirlarida paydo bo'lgan "globallashuv" atamasi jahon mamlakatlari iqtisodiy va moliyaviy hayotining yalpi umumlashib borayotganini ifoda etar edi. Bugungi kunga kelib esa u keng qamrovli tushunchaga aylandi. U davlatlar va xalqlar hayotining barcha sohalarida yalpi umumlashuv jarayonini anglatmoqda. "Globallashuv" atamasi dastlab amerikalik olim T.Levittning "Garvard biznes revyu" jurnalining 1983 yilgi sonlaridan birida tilga olingan[1]. Bu atamaga keyinchalik mutaxassislar turlicha ta'rif berdilar. "Kimdir uni yuksak texnologiyalar zamoni desa, kimdir tafakkur asri, yana birov yalpi axborotlashuv davri sifatida izohlamogda"[2]. Insoniyat XXI asr boshida bir qator chegara bilmaydigan muammolarga duch keldi. Urush va tinchlik, ekologik falokatlar, ma'naviy qashshoqlik, narkobiznes, terrorizm kabi muammolar ana shular jumlasidandir. Bugungi globallashuv davrida insoniyat o'z taraqqiyot cho'qqisiga chiqayotgan lekin, shu bilan birgalikda o'z tanazuliga zamin yaratayotgan davrda biologik va geo muammolar birlamchi ahamiyat kasb etmoqda. Tabiatni "jilovlashga" harakat qilayotgan insoniyat uning "jahli"ni chiqarayotgandek go'yo. Antraktida muzliklarining erishi, Grelandiya muzlik orolining qisqarishi, Orol dengizining cho'lga aylanishi, cho'llarning kengayishi, sho'rlangan yerlardan chiqayotgan tuzlarning havoni ifloslantirishi va h.k kabi muammolarning biz ko'z o'ngimizda bo'lib turgan ofatlardir. Insoniyat keyingi ellik yilda texnologik jihatdan qanchalik o'sgan bo'lsa, tabiat ne'matlaridan shunchalik mosuvo bo'lmoqda. Bu muammolarning yuzaga kelishiga davlatlarning o'zaro nosog'lom raqobati, geosiyosati va bir qancha boshqa omillar qo'shimcha tarzda ta'sir qilmoqda. Bugun

biz o`rganmoqchi bo`lganimiz tabiat muammolari va davlatlarning olib borayotgan geosiyosati natijasida yuzaga keladigan muammolardir.

Geosiyosat tushunchasi o`zida “geo”–yer, —“siyosat” esa davlat va “ijtimoiy ish” ma`nolarini anglatadi. Geosiyosat atamasida geosiyosiy muddaolar, ularning ko`rinishlari, turli xil davlat va xalqlarning manfaatlari tizimi, unga bo`lgan yondashuv uslublari, vositalari, u yoki bu davlatning hududiy joylashuvi, salohiyatiga bo`lgan munosabatda ifodalangan maqsadlar o`z ifodasini topadi.

Geosiyosat-uzoq tarixga ega bo`lsada, u tushuncha sifatida XX asrning boshlarida shakllangan. Bu atama R. Chellen tomonidan muomalaga kiritilgan bo`lib, hozirgi davrda davlatlar va dunyo mamlakatlari xalqaro siyosatida, falsafada, siyosat falsafasi va fanlarida keng qo`llanilmoqda. Geosiyosat ko`p qirrali tushuncha sifatida turli manfaatlarni o`zida mujassam etadi.

Hozirgi davrda geosiyosiy maqsadlar ko`proq mafkuraviy siyosat bilan hamohangligini alohida ta`kidlash zarur. Bunda mafkuraviy ta`sir ko`rsatish geosiyosatning eng ta`sirchan vositasi sifatida namoyon bo`lmoqda. Ya`ni turli davlatlarning maqsadlari xalqning turli qatlamlari, xususan yoshlar ongi va qalbiga mafkuraviy ta`sir ko`rsatish orqali, ularning faoliyatini o`z ta`siriga, ya`ni manfaatlariga yo`naltirgan mafkuraviy muhitni yaratishni ko`zlagan holda amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonni to`g`ridan-to`g`ri ko`rish, uning qanday amalga oshirishini aniq bilish qiyin va murakkabdir. Ana shu sababdan ham mafkuraviy poligonlar yadro poligonlariga qaraganda xavfliroq bo`lib qolganligini alohida ta`kidlanadi.

Markaziy Osiyo davlatlari uchun tayyorlanayotgan axborotlarni aksariyati bu hududda yashayotganlar dunyoqarashiga psixologik ta`sir etishni maqsad qilgan mafkuraviy markazlar tomonidan moliyalashtirilmoqda. Ularni maqsadi, mustaqil davlatlar tanlagan yo`lning noto`g`ri ekanligini singdirishga qaratilgan, ularni oxir oqibatda ijtimoiy larzalar kutayotganini asoslashga asosiy e`tibor berilganligidan bilishimiz mumkinki, bularni barchasi millat ruhini tushirish, uni tanlagan yo`lidan qaytarish va homiy axtarishga majbur etish amalga oshirilayotir. Zamonaviy dunyoda “o`zga hududlarni zabt etish uchun, ularning aholisini qirish shart emas. Zero, ongi va shuuri zabt etilgan, qarash va kayfiyatlari ma`qul yo`nalishga o`zgartirilgan aholi ko`magida har qanday boylik, tabiiy rusurslarga egalik qilish mumkin bo`lib bormoqda”[3]. Geosiyosiy jarayonlarni “sovuq urush”ning bir ko`rinishi sifatida ko`rishimiz mumkin. Ammo gesiyosiy jarayonlarda mafkuraviy tazyiqlar va mafkuraviy bo`lish siyosati birlamchi o`rinni egallaydi. Bugun —ikki qutbli mafkura o`rtasidagi kurashga barham berilgan bo`lsada, ammo dunyoda mafkuraviy kurashlar to`xtab qolgani yo`q. Aksincha jahon maydonlarini mafkuraviy bo`lib olishga urinishlar turli yo`llar bilan sodir bo`lmoqda. Masalan, O`zbekiston mustaqillikni qo`lga kiritgandan keyin mafkura sohasida hayot osonlikcha

kechmadi. Milliy istiqlol g'oyasiga zid bo'lgan yot va begona g'oyalar kirib kelishga va yoshlarimiz ongini egallashga, ularni mamlakatimizda belgilangan ulug' maqsadlarni amalga oshirishga qarama-qarshi qo'yishga urinishlar bo'lganligining guvohimiz.

Globallashuv jarayonlarining salbiy jihatlaridan yana biri sifatida yoshlar axloqiy dunyoqarashlarining "qashshoqlashuvi"ga olib kelmoqda. Oxirgi vaqtlarda telefonlarda yoshlar behayo filmlarni va rasmlarni olib yurishdan uyalmay qo'ymoqdalar. XV asrda yashab, ijod qilgan notiq va olim Husayn Voiz Koshifiy "Hayo va andisha dunyoda tartib saqlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Hayo yo'qolsa hech kimda vijdon qolmaydi, (u holda) dunyoda tartib buziladi, kishilar bir-birlariga befarq qaraydigan bo'ladilar" [4] deb aytib o'tgan edilar. Lekin bugun yuksak ahloqiy tushunchalar haqidagi gaplar quruq gap bo'lib qolmoqda. Yoshlarga e'tiborsizlik, kelajakni barbod qilish bilan barobardir. Zero, kelajakni yoshlar barpo etishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Saidov U. Globallashuv va madaniyatlar muloqoti. -T.: Akademiya, 2008. 9-b.
2. Karimov I. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, 2008. 110-b.
3. Milliy istiqlol g'oyasi: Asosiy tushuncha va tamoyillar. -T.: Yangi asr avlodi, 2001.65-b.
4. Qur'onov M. Mafkuraviy tahdid va yoshlar tarbiyasi. T.: Akademiya, 2008.B.6-7.